

**DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI****THE PRACTICE OF FINANCING PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS BASED ON PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS****¹Xalilova Shoxsanam
G'ayrat qizi***¹PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.**E-mail: sh.khalilova@tsue.uz**ORCID: 0009-0006-3162-2023***Annotatsiya
Annotation**

Uzb - Ushbu maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish jarayonida erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ham tahlil qilindi.

Eng - This article analyzes the positive results achieved in the development of preschool educational organizations in our country, as well as the problems arising in the process of expanding the network of preschool educational organizations and creating the necessary conditions for covering children with preschool education.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ *intellektual kapital, abstraksiyalash, axborot texnologiyalari, davlat-xususiy sheriklik, xususiy sektor.*

❖ *intellectual capital, abstraction, information technology, public-private partnership, private sector.*

Kirish.

O'zbekistonda “maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning moliyaviy ta'minoti uzluksizligini ta'minlash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirishda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan birga xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada rag'batlantirishga, maktabgacha ta'limda davlat-xususiy sheriklik sohalarida katta natijalarga erishilmoqda” [1].

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Davlat sektori aholining sifatli ta'lim olishini ta'minlash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish esa ushbu sohaga qo'shimcha mablag'larni jalb etib,

davlat tomonidan qondirilmagan ehtiyojlarni qoplashga yordam beradi.

Shu bilan birga, “Davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy bog'chalar tashkil etish bo'yicha nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasini tuzish, jamg'arma mablag'lari nodavlat bolalar bog'chalari uchun bino va inshootlarni xarid qilish, yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga imtiyozli stavkada kredit ajratishga yo'naltirish” hamda “kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni kerak. Bu – juda katta marra. Shu bois, bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardagi ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha

sharoitlar yaratish" [4] kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ta'limda davlat va xususiy sheriklik munosabatlari, xususiy sektorni davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga yo'naltirish masalalari, davlat-xususiy sheriklik amaliyotida maktabgacha ta'lim munosabatlarining ayrim elementlari bir qator MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlari M.A.Пахомов, Е.С.Пахомова, И.Евгеньевна, А.С.Васильевна, В.А.Мальгин, В.А.Гуревич, Т.Н.Богуславская tomonidan tadqiq etilgan [5, 6, 7, 8].

Rossiyalik tadqiqotchi A.Beliskaya davlat-xususiy sherikchilik tushunchasini davlat hokimiyati organlari, tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida o'rnatiladigan hamkorlik munosabatlari sifatida tavsiflaydi [9].

Xorijiy tadqiqotchi olimlar S.Linder va E.Savaslarning fikriga ko'ra, davlat va xususiy sektor hamkorligining maqsadi davlat funksiyalarini amalga oshirish usulini o'zgartiradigan innovatsion vosita hisoblanadi [10].

Davlat-xususiy sheriklik borasida ilmiy izlanishlar olib borgan A.Э.Шайхов tomonidan davlat-xususiy sheriklikning nazariy jihatlari va modullari yoritib berilgan [11].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tahlil qilingan mavzuga oid xorijiy va mahalliy ekspertlarning qarashlari, ular tomonidan taklif etilgan izlanishlar o'rganildi, muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarda induksiya va deduksiya, guruhlash, qiyosiy taqqoslash, statistik va dinamik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 3-6 yosh orasidagi bolalarning maktabgacha ta'lim

qamrovi 2017-yilda 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 71 foizdan oshgan. 6 yoshli bolalarning bir yillik maktabgacha ta'limda ishtirok etish darajasi esa 2023-yil sentabr oyida 90 foizga yetdi va ushbu ko'rsatkich doimiy ravishda o'sib bormoqda. Qamrovning eng yuqori darajasi Toshkent shahriga (54 foiz), eng past ko'rsatkich esa Janubiy geoiqtisodiy mintaqaga (23 foiz) to'g'ri keladi [3].

Ushbu masalalarga nisbatan kompleks yondashuv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-sonli Qarorida atroflicha aks etgan bo'lib, "davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bino va inshootlarini qurish, ta'mirlash, tiklash, joriy saqlash, shuningdek, ularni kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini tashkil etish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirilishi, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti belgilangan tartibda yuritilishini tashkil etish" bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratilganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga doir jarayonlarni muvofiqlashtirishni taqozo etadi [2].


O'z navbatida mazkur holat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmining mohiyati va xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor (mahalliy investorlar) o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va mustahkamlash orqali pirovard natijada mamlakat infrastrukturasi takomillashtirishga erishiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 3-7 yosh oraliqida taxminan 3 mln. bola mavjud bo'lib, ularning 74 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan.

Mamlakatda bu ko'rsatkichni 2026-yilgacha 80 foizga, 2030-yilga borib, 100 foizga yetkazish reja qilingan. 2024-yil yakunlari bo'yicha mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha amalga

oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jami 1388 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamda 24,9 mingta oilaviy shakldagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tizimi bilan qamrab olingan 3-7 yoshdagi bolalar soni (ming dona)

O'zbekistonda yashovchi 3 – 7 yoshdagi 2,5 milliondan ortiq bolalarning 67,8 foizi Samarqand (12,1 foiz), Farg'ona (10,8 foiz), Qashqadaryo (10,5 foiz), Andijon (9,3 foiz), Surxondaryo (8,5 foiz), Namangan (8,4 foiz) va Toshkent (8,2 foiz) viloyatlarida istiqomat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, har yili mamlakatda 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Chunonchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan umumiy ortiqcha yuk respublika bo'yicha 12 foizni tashkil qilsa, uning eng yuqori darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, eng past darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg'ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz) kuzatilmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi" asosida, 2022-2023-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizim bilan qamrab olish darajasini 74,5 foizga, 2024-2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va qurish vazifasi berilib, asosiy e'tibor respublikamizning Surxandaryo, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Samarqand va Andijon viloyatlari kabi hududlaridagi qamrov darajasini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ta'minlashga qaratilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash,

tarbiyachilarning tarkibi va tayyorgarlik darajasini yaxshilash orqali ta'lim jarayonida moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida daromad keltiruvchi pulli xizmat turlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori. 2019-yil 8-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-sonli Qarori. 2021-yil 10-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim sektorida islohotlarni amalga oshirishda sheriklik to'g'risidagi bitim". 2023-yil, mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr.
5. М.А.Пахомов, Е.С.Пахомова. Государственно-частное партнерство в сфере дошкольного образования. Социально-экономические явления и процессы. № 11 (033), 2011.
6. И.Е.Евгениевна, А.С. Василевна. Механизм Государственно-частное партнерство. Журнал «Теоритическая экономика» № 6, 2017.
7. В.А.Малгин, В.А.Гуревич. Экономическое содержание и особенности Государственно-частное партнерство в образовании. Вестник экономики, права и социологии №2, 2014.
8. Т.Н. Богуславская. Частно - государственное партнерство в повышении доступности качественного дошкольного образования. "Управление образованием: теория и практика" № 4, 2014.
9. Белицкая, А.В. Правовые формы государственно-частного партнерства в России и зарубежных странах / А.В. Белицкая // Предпринимательское право. – 2009. – №2. – С. 21–27.
10. Delmon, J. Private Sector Investment in Infrastructure: Project Finance, PPP Projects and Risk / J. Delmon // The World Bank and Kluwer Law International. 2009. – P. 7.
11. Теория и практика государственно-частного партнерства; учебный модуль. /Под редакцией А.Э. Шайхова. – Ташкент, 2013.